



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KARDIOLOGIK TERMINLARNING SINONIMIYA VA VARIANTLIK MUAMMOSI

Batirova Xurshida Egamberdiyevna
O'zbekiston davlat jahon tillari univesiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi kardiologik terminlarda sinonimiya va variantlik hodisalari tahlil qilinadi. Ularning nazariy farqlari, yuzaga kelish omillari, registrga bog'liq qo'llanish xususiyatlari va standartlashtirish uchun ahamiyati kardiologik misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: kardiologik termin, terminologik sinonimiya, variantlik, semantik moslik, xalqaro termin, milliy termin, standartlashtirish, tibbiy diskurs, qisqartma, terminologik me'yor.

ПРОБЛЕМА СИНОНИМИИ И ВАРИАНТНОСТИ КАРДИОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Батирова Хуршида Егамбердиевна
Узбекский государственный университет мировых языков, преподаватель

Аннотация

В статье анализируются явления синонимии и вариантности в английской и узбекской кардиологической терминологии. Освещаются их теоретические различия, причины возникновения, особенности функционирования в разных регистрах и значение для стандартизации на материале кардиологических терминов.

Ключевые слова: кардиологический термин, терминологическая синонимия, вариантность, семантическое соответствие, международный термин, национальный термин, стандартизация, медицинский дискурс, сокращение, терминологическая норма.

THE PROBLEM OF SYNONYMY AND VARIABILITY OF CARDIOLOGICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

Batirova Khurshida Egamberdiyevna
Uzbekistan State World Languages University, Lecturer

Abstract

The article examines synonymy and variability in English and Uzbek cardiological terminology. It focuses on their theoretical distinction, motivating factors, register-based usage, and relevance for standardization, using cardiological examples to show how competing terms function in scientific and educational discourse.

Keywords: cardiological term, terminological synonymy, variability, semantic correspondence, international term, national term, standardization, medical discourse, abbreviation, terminological norm.

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti sharoitida maxsus leksika, ayniqsa, tibbiyot terminologiyasi eng jadal rivojlanayotgan qatlamlardan biri hisoblanadi. Tibbiyot sohasida axborot almashinuvi nafaqat mutaxassislar o'rtasida, balki ijtimoiy hayotning turli bo'g'inlarida ham amalga oshadi. Shu sababli terminologik tizimda mantiqiy aniqlik va lisoniy barqarorlikni ta'minlash masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Tibbiyot tili o'z tabiatiga ko'ra aniqlikni talab etadi, biroq real amaliyotda bitta tushuncha uchun bir nechta nominativ birliklarning qo'llanilishi

sinonimiya va variantlik muammosini yuzaga keltiradi. Bu holat ilmiy kommunikatsiyada noaniqliklar tugʻdirishi, darslik va amaliy tibbiyot hujjatlarida chalkashliklarga sabab boʻlishi mumkin.

Maqolaning maqsadi ingliz va oʻzbek tillarida kardiologik terminlarning sinonimiya va variantlik hodisalarini aniqlash, ularning semantik tabiatini tavsiflash hamda standartlashtirish nuqtai nazaridan baholashdan iborat.

Terminologik sinonimiya masalasi terminshunoslik fanining shakllanish davridan buyon bahsli muammolardan biri boʻlib keladi. Anʼanaviy terminshunoslik maktabi vakillari E. Vyuster va D. S. Lotte ideal terminologik tizimda bitta tushunchaga faqat bitta termin mos kelishi kerak, degan qarashni ilgari surganlar [13; 174 B.], [7; 157 B.]. Biroq real ilmiy amaliyot bu modelning doimo saqlanmasligini koʻrsatadi. Ayniqsa, tibbiyot kabi jadal rivojlanayotgan sohalarda yangi bilimlarning shakllanishi bilan birga ularni nomlashning bir necha usullari ham yuzaga keladi. Natijada bir konsept atrofida turli nominativ birliklar shakllanadi.

Terminologik sinonimiya umumtil sinonimiyasidan semantik va funksional jihatdan farqlanadi. Umumadabiy tilda sinonimlar koʻpincha uslubiy farq yoki ekspressivlikni bildiradi. Terminologiyada esa ular asosan bir konseptni turlicha nomlash bilan bogʻliq boʻlib, emotsional boʻyoqdorlikdan xoli boʻladi [11; 125 b.]. V. M. Leychik taʼkidlaganidek, termin oʻz tabiatiga koʻra stilistik neytral boʻlishi kerak; shu sababli terminologik sinonimlar orasida “chiroyliroq” yoki “yaxshiroq” emas, balki “aniqroq” variant boʻlishi mumkin [6; 104 b.].

Shu bilan birga, terminologik sinonimiya har doim mutlaq tenglikni anglatmaydi. Rita Temmerman sotsiokognitiv yondashuv doirasida terminologik sinonimiyani “funksional” hodisa sifatida izohlaydi va u ilmiy tushunchaning turli bosqichlardagi anglash darajasini aks ettirishi mumkinligini koʻrsatadi [12; 259 B.]. Demak, bir termin tushunchaning tizimli tomonini, ikkinchisi esa uning amaliy yoki tavsifiy tomonini koʻproq ochib berishi mumkin.

Variantlik esa terminologik sinonimiyadan farqli ravishda semantik emas, asosan nominativ va formal hodisadir. Terminshunoslikda variantlik bitta terminning mazmuni oʻzgarmagan holda uning lisoniy qobigʻining turli koʻrinishlarda namoyon boʻlishi sifatida talqin qilinadi [6; 75 b.]. Bunda terminning mantiqiy yadrosi saqlanadi, oʻzgarish esa koʻproq shakl, yozuv, qisqartirish yoki komponentlar joylashuvida kuzatiladi.

Shunday qilib, sinonimiya va variantlikni bir-biridan qatʼiy farqlash zarur. Sinonimiya turli ildizli birliklarning bir konsept atrofida birlashishi bilan bogʻliq boʻlsa, variantlik bitta terminning struktur yoki grafik koʻrinishlaridagi oʻzgarishdir. Aynan shu farqni hisobga olish kardiologik terminlarni standartlashtirishda asosiy metodologik tayanch boʻlib xizmat qiladi.

Kardiologiya terminologiyasi qadimiy ilmiy qatlam va zamonaviy klinik amaliyotning kesishgan nuqtasida joylashgani uchun unda sinonimiya va variantlik ayniqsa faol namoyon boʻladi. Oʻzbek kardiologik leksikasida bu hodisalar asosan xalqaro shakl va milliy shaklning parallel qoʻllanishi, kalk va transliteratsiyaning raqobati, qisqartma va toʻliq shaklning yonma-yon yashashi, shuningdek sintaktik variantlar orqali yuzaga chiqadi.

Xalqaro shakl va milliy shakl. Bu turdagi sinonimiya oʻzbek tibbiyot tilining eng xarakterli xususiyatlaridan biridir. Bunda grek-lotin asosli xalqaro termin bilan uning oʻzbekcha lugʻaviy muqobili parallel qoʻllanadi. Masalan, *insufficiency* – *insuffitsiyensiya* / *yetishmovchilik*; *obstruction* – *obstruksiya* / *toʻsilib qolish*; *regurgitation* – *regurgitatsiya* / *qayta oqish* [11; 163-165 b.]. Xalqaro shakl mutaxassislar oʻrtasidagi ilmiy muloqotda tizimlilikni taʼminlasa, milliy shakl tushunchaning mazmunini oʻzbekzabon auditoriya uchun shaffoflashtiradi.

Kalka va transliteratsiya. Inglizcha terminlarni oʻzbek tiliga oʻgirishda koʻpincha ikki yoʻl kuzatiladi: soʻzma-soʻz tarjima va tovushma-tovush oʻzlashtirish. Masalan, *myocardial infarction* – *miokard infarkti* / *yurak infarkti*; *heart failure* – *yurak yetishmovchiligi* / *yurak insufitsiyensiyesi* [11; 186 b.], [4; 246 b.]. Transliteratsiya qilingan shakl koʻproq ilmiy registrga

xos bo'lsa, kalkalangan shakl semantik shaffoflikni oshiradi. Shu bois bu ikki shakl o'rtasidagi tanlov faqat lingvistik emas, balki kommunikativ omilga ham bog'liq.

Qisqartma va to'liq shakl. Bu hodisa variantlikning aniq ko'rinishidir. Masalan, *ECG* – *EKG* / *elektrokardiografiya*; *MI* – *IM* / *infarkt miokarda*; *CHF* – *SYE* / *surunkali yurak yetishmovchiligi* [1; 607-608 b.], [6; 256 B.]. Bu holda terminning semantik yadrosi saqlanadi, o'zgarish faqat ifoda vositasining ixchamligi bilan bog'liq bo'ladi. M. T. Cabré ta'kidlaganidek, bunday qisqartmalar nutqiy tejamkorlik tamoyili asosida shakllanadi va terminning mazmuniga putur yetkazmaydi [3; 131 b.].

Sintaktik variantlar. Kardiologiya terminologiyasida komponentlarning o'rni yoki soni o'zgarishi natijasida sintaktik variantlar ham yuzaga keladi. Masalan, *arterial hypertension* – *arterial gipertenziya* / *gipertoniya kasalligi* / *qon bosimi oshishi*; *mitral valve prolapse* – *mitral klapan prolapsi* / *ikki tabaqali qopqoqcha tushishi* [2; 106-110 b.], [11; 195 b.]. Shuningdek, *aorta klapani stenozi* va *aorta stenozi* singari birliklarda elipsis orqali terminning soddalashuvi kuzatiladi (Лейчик В. М. 2007. – С. 106). Bu o'zgarishlar semantik yadroni emas, ifoda shaklini o'zgartiradi.

Sinonimiya va variantlik o'rtasidagi farqni aniq ko'rsatish uchun ayrim juftliklarni alohida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Miokard infarkti / *yurak infarkti*. Bu juftlik leksik sinonimiya, aniqrog'i, dubletlik sifatida baholanishi mumkin. "Miokard" xalqaro tibbiy birlik bo'lib, yurak mushagini aniq bildiradi, "yurak" esa umumiyroq anatomik birlikdir. E. V. Smirnova bunday juftliklarni milliy va baynalmilal dubletlar sifatida tavsiflaydi [11; 186 b.]. AMA qo'llanmasida *myocardial infarction* qat'iy ilmiy termin, *heart attack* esa ko'proq klinik jargon yoki ommabop shakl sifatida farqlanishi qayd etilgan [1; 538 b.]. Demak, bu yerda semantik yaqinlik mavjud bo'lsa-da, ilmiy aniqlik nuqtai nazaridan *miokard infarkti* ustun hisoblanadi.

Yurak yetishmovchiligi / *yurak insufitsiyensiyesi*. Bu ham leksik sinonimiya bo'lib, terminning ikki xil nominativ manbadan oziqlanishini ko'rsatadi. "Yetishmovchilik" milliy tilga moslashgan shakl bo'lsa, "insufitsiyensiya" xalqaro terminologik qatlamga mansubdir [8; 24 b.]. Ular bir konseptni nomlasa-da, ularning uslubiy va registrga xos yuklamasi bir xil emas.

EKG / *elektrokardiografiya*. Bu esa variantlik hodisasidir. Qisqartma va to'liq shakl o'rtasida semantik farq yo'q; faqat ifoda shakli turlicha. Shu bois bu juftlikni sinonim emas, nominativ-struktur variant sifatida baholash to'g'ri bo'ladi [3; 131 b.].

Ko'rinadiki, agar birliklar orasidagi farq tushunchaning nomlanish usuliga borib taqalsa, bu sinonimiya; agar farq faqat shakl, qisqartirish, komponentlar joylashuvi yoki imlo bilan bog'liq bo'lsa, bu variantlikdir. Tibbiyotda variantlik terminning standartlashish darajasini ko'rsatsa, sinonimiya uning ijtimoiy va professional qatlamlardagi harakatini ifodalaydi.

Kardiologik terminologiyadagi bu hodisalar tasodifiy emas. Ularning shakllanishiga bir qator lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sir qiladi.

Ingliz tilidan bevosita o'zlashish va rus tili vositachiligi. Bugungi kunda tibbiyotning "lingua franca"si ingliz tili bo'lgani sababli yangi terminlar ko'pincha bevosita ingliz tilidan o'zlashadi. Biroq o'zbek tibbiyot tilining tarixiy shakllanishida rus tili vositachilik qilgani tufayli bitta tushunchaning inglizcha, ruscha vositachi va o'zbekcha muqobil shakllari yonma-yon yashab qolmoqda. Masalan, *stenting* termini *stentlash* va *stent o'rnatish* shakllarini yuzaga keltiradi (Лейчик В. М. 2007. – С. 123, 461). Bu holat terminologiyada "uch qatlamli" raqobatni yuzaga keltiradi.

Xalqaro va milliy terminologik qatlamning o'zaro ta'siri. Mutaxassislar grek-lotin elementlarini xalqaro standart sifatida saqlashga intiladilar. Biroq milliy tilning ichki rivojlanish ehtiyoji ushbu terminlarni o'zbekcha shakllar orqali ifodalashni ham rag'batlantiradi. Masalan, *myocarditis* – *miokardit* / *yurak mushagi yallig'lanishi*. Bu jarayon tibbiy terminologiyaning jamiyatga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Registr farqi. Terminlarning shakllanishida muloqot vaziyati ham muhim omil hisoblanadi. Akademik darsliklarda tushunchalar ko'proq tavsifiy va izohli shaklda berilishi mumkin, ilmiy maqolalar va xalqaro standartlarda esa qisqa, qat'iy va ixcham terminlar afzal ko'riladi. Binobarin, variantlik ko'pincha auditoriya va kommunikativ maqsadga bog'liq bo'ladi.

Registr va funksional tanlov masalasi. Terminologik tizimdagi barcha variantlar semantik jihatdan yaqin bo'lishi mumkin, biroq ular funksional va uslubiy jihatdan teng emas. Mutaxassislar o'rtasidagi muloqotda qat'iy grek-lotin asosli xalqaro terminlar afzal ko'riladi. Masalan, *yurak insufitsiyensiyasi* ilmiy registr uchun mos bo'lib, u terminning tizimli o'rnini ko'rsatadi [11; 255 b.]. Darsliklar yoki bemor bilan muloqotda esa tushunchaning shaffofligi muhim bo'ladi. Bunda *yurak yetishmovchiligi* kabi milliy tilga moslashgan variantlar tushunarliroq va kognitiv jihatdan osonroq qabul qilinadi [12; 206 b.].

Shundan kelib chiqib, termin tanlashda yagona mutlaq shaklni belgilash har doim ham maqsadga muvofiq emasligi ko'rinadi. Terminning me'yoriyligi uning nafaqat semantik aniqligi, balki qo'llanish registri va kommunikativ vazifasiga ham bog'liq bo'ladi. Demak, ilmiy diskursda xalqaro shakllar ustunlik qilsa, ta'limiy va ommabop izohda milliy tilga yaqin, mazmuni shaffof variantlarning qo'llanishi funksional jihatdan asosli hisoblanadi.

Amerika Tibbiyot Assotsiatsiyasi qo'llanmasida jargonlardan qochish va aniq ilmiy terminlarni ishlatish talab etiladi. Masalan, norasmiy *heart attack* o'rniga qat'iy ilmiy *myocardial infarction* termini afzal ko'riladi [1; 538 b.]. Shu jihatdan har bir variantning o'z "yashash hududi" mavjud. *Insufitsiyensiya* terminning ilmiy poydevorini saqlasa, *yetishmovchilik* uning kengroq ijtimoiy qatlamlarga kirib borishini ta'minlaydi.

Standartlashtirish jarayoni tilning tabiiy xilma-xilligini sun'iy ravishda yo'q qilish emas, balki ilmiy kommunikatsiya uchun ustuvor variantni belgilashdir. Bitta konsept uchun bir nechta terminning mavjudligi xalqaro axborot almashinuvida qiyinchiliklar tug'dirishi, tibbiy hujjatlarda noaniqlik keltirib chiqarishi va terminologik tizimdagi ierarxik tartibni susaytirishi mumkin [12; 220 b.], [6; 203 b.].

Me'yoriy tanlov ixtiyoriy emas, u ilmiy mezonlarga tayangan holda amalga oshirilishi kerak. Mazkur mezonlar quyidagilardan iborat:

konseptga to'liq moslik – tanlangan termin tushunchaning muhim belgilarini to'liq aks ettirishi lozim [4. 83 b.];

ilmiy aniqlik va univotsitlik – termin imkon qadar bir ma'noli bo'lishi va boshqa tushunchalar bilan kesishmasligi kerak [7; 137 b.];

qisqalik va qulaylik – termin amaliyotda qulay qo'llanilishi zarur [3; 131 b.];

xalqaro moslik – jahon tibbiyot maydonida tushunarli bo'lishi uchun grek-lotin asosi yoki unga mos transliteratsiyasi hisobga olinadi [6; 104 b.].

Ular asosida quyida kardiologik terminlarni baholash jadvali tuzildi:

Inglizcha termin	O'zbekcha variantlar	Hodisa turi	Me'yoriy tavsiya	Asos
Heart failure	yurak yetishmovchiligi / yurak insufitsiyensiyasi	Sinonimiya (dubletlik)	yurak yetishmovchiligi	Milliy tibbiyot tizimida barqarorlashgan va kognitiv jihatdan shaffof.
Myocardial infarction	miokard infarkti / yurak infarkti	Qisman sinonimiya	miokard infarkti	Qat'iy ilmiy termin bo'lib, patologik jarayonning aniq lokalizatsiyasini ko'rsatadi.
Arterial hypertension	arterial gipertenziya / qon bosimi oshishi	Registr varianti	arterial gipertenziya	Xalqaro standartlarga

				muvofig ilmiy muloqot va tibbiy hujjatlar uchun qat'iy shakl hisoblanadi.
ECG (Electrocardiogram)	EKG / elektrokardiografiya	Nominativ- struktur variant	elektrokardiografiya (EKG)	To'liq shakl mantiqiy asos uchun, qisqartma professional iqtisod uchun tavsiya etiladi.
Mitral valve prolapse	mitral klapan prolapsi / ikki tabaqali klapancha tushishi	Leksik- semantik variant	mitral klapan prolapsi	Xalqaro terminologik kodga mos va ilmiy registr uchun qulay.

Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, standartlashtirish shakliy ko'rinishlarning tasodifiy saralanishi emas, balki konseptual aniqlik, registr mosligi va tizimlilikka asoslangan ongli tanlov jarayonidir.

Tahlillar ingliz va o'zbek tillaridagi kardiologik terminologiyada sinonimiya va variantlik shakllari faol mavjudligini ko'rsatdi. Ular bir-biriga yaqin hodisalar bo'lsa-da, tabiatiga ko'ra farqlanadi: sinonimiya bir konseptning turli nominativ manbalar orqali ifodalanishi bilan bog'liq semantik hodisa bo'lsa, variantlik mazmun o'zgarmagan holda terminning shakliy ko'rinishlaridagi farqlanishdir. Kardiologik terminologiyada xalqaro shakl va milliy shaklning parallel qo'llanishi, kalk va transliteratsiya, qisqartma va to'liq shakl, sintaktik variantlar ana shu xilma-xillikning asosiy ko'rinishlari sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, barcha variantlar funksional jihatdan teng emas. Ilmiy registrda xalqaro va tizimli shakllar ustunlik qilsa, ta'limiy va ommabop diskursda mazmuni shaffof, milliy tilga yaqin variantlar ko'proq samarali bo'ladi. Demak, standartlashtirishning vazifasi sinonimiya va variantlikni butunlay bartaraf etish emas, balki ular orasidan konseptual jihatdan eng aniq, kommunikativ jihatdan eng maqbul va tizim nuqtai nazaridan eng barqaror variantni tanlashdan iborat. Aynan shu yondashuv kardiologik terminologiyada me'yoriy birlikni belgilash va professional muloqotni izchil tashkil etish uchun zarur nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. AMA Manual of Style: A Guide for Authors and Editors. 11th ed. – New York: Oxford University Press, 2020. – 1227 p.
2. Bobojonova Sh. Yo. Semantic analysis of medical lexicon in Uzbek and English // Scientifictext.ru. – 2020. – b. 106-110
3. Cabré M. Teresa. Terminology: Theory, methods and applications. Edited by Juan C. Sager. – Amsterdam: John Benjamins, 1999. – 246 p.
4. Даниленко В. П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 246 с.
5. Kageura K. The Quantitative Analysis of the Dynamics and Structure of Terminologies. – Amsterdam: John Benjamins, 2012. – 243 p.
6. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: Издательство ЛКИ, 2007. – 256 с.
7. Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – 157 с.
8. Лотте Д. С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов. – М.: Наука, 1982. – 149 с.

9. Реформатский А. А. Введение в языковедение. 5-е изд. – М.: Аспект Пресс, 2007. – 536 с.
10. Sager Juan C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins, 1990. – 254 p.
11. Смирнова Е. В. Структурно-семантический и лексикографический аспекты медицинской терминологии (на примере кардиологической лексики): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ярославль, 2012. – 254 с.
12. Temmerman Rita. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam: John Benjamins, 2000. – 259 p.
13. Wüster Eugen. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien; New York: Springer-Verlag, 1979. – 174 p.